

LUIZA ERDRIKNING “TUNGI QOROVUL” ASARIDA MO‘JIZAVIY
REALIZM XUSUSIYATLARI

Nilufar Muxammedova

Falsafa doktori (PhD)., dotsent

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Maqola Amerika adabiyotida keng talqin etilgan mo‘jizaviy realizm xususiyatlarini Luiza Erdrik ijodi misolida ochib berishga qaratilgan. Luiza Erdrik asarlarida Amerika tub aholisi bo‘lgan hindular hayotini yoritib berish orqali ularda mavjud bo‘lgan mo‘jizaviy realizm xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatib beradi. Adiba hindulardan yetishib chiqqan ayol yozuvchi hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *mo‘jizaviy realizm, roman, amerika, qabila, hindu, tarix, xususiyat*

Mo‘jizaviy realizm bugungi kunda Amerika adabiyotining muhim ahamiyatga molik jihatlaridan biri hisoblanadi. Xususan Amerikaning tub aholisi bo‘lgan hindulardan yetishib chiqqan adiblar ijodi mo‘jizaviy realizm elementlariga juda boydir. Amerikaning taniqli adibasi Luiza Erdrikning “Tungi qorovul” (2020) romani bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Adiba mazkur romanida boshqa asarlarida qo‘llagan uslubini, ya’ni tarix va badiiy asar o‘rtasidagi chegaralarni olib tashlaydi. Mazkur asarida yozuvchi kitobxonlarni mo‘jizaviy realizmga xos bo‘lgan elementlardan sanalmish ruhlarni, so‘zlasha oladigan itlarni va sirli pau-vau¹ raqslari bilan tanishtiradi. Maqolaning maqsadi yozuvchi Luiza Erdrikning mo‘jizaviy realizm elementlarini qo‘llagan holda Amerika hindular tarixini o‘z yeridan haydalgan, huquqlari toptalgan, ezilgan millat vakillari nuqtayi nazaridan tasvirlash uslubini tadqiq etish va aynan adibaning Amerika hindulari tarixidagi ikki muhim voqea² kontekstida yaratgan arvohlar obrazidagi xarakter xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir.

Adibaning “Tungi qorovul” romani 1950-yillarda Shimoliy Dakotada joylashgan Toshbaqa tog‘ hindularining Chippeva qabilasi hayotida sodir bo‘lgan 1950-yil voqeasini hikoya qiladi. AQSHda 1950 – 1960-yillarda Amerika hukumati Hindu qabilalari hududlarini qo‘llab-quvvatlashni to‘xtatishga urinish siyosatini olib boradi va bu siyosatdan norozi bo‘lgan barcha hindu qabilalari kurash olib boradi. Chippeva qabilasi olib borgan kurash markazida qabilaning boshi Tomas Vozxashk turadi. Luiza Erdrik Tomas Vozxashk obrazini Toshbaqa tog‘ida qimmatbaho toshlar ishlab chiqarish zavodida tungi qorovul bo‘lib ishlagan bobosi Patrik Gurno asosida yaratadi. Adiba davr voqealarini tasvirlashda bobosining maktublaridan va

¹ Pau-vau (Powwow) Amerika hindularining raqsga tushish, qo‘shiq aytish va ota-bobolarining urf-odatlarini hurmat qilish uchun yig‘iladigan bayrami.

² 1950-yillardan 1960-yillarning o‘rtalariga qadar tugatish siyosati; amerikalik hindularni Amerika jamiyatiga o‘zlashtirishga qaratilgan siyosat; Shaxslarni to‘liq fuqaroning barcha majburiyatlarini o‘z zimmasiga olishga majbur qilish orqali AQSH hukumatining hindu jamoalari oldidagi shartnomaga asoslangan ishonch majburiyatlarini tugatishga qaratilgan. 2. AQSH hukumati tan olgan hindu qabilalarining farzandlari uchun ochilgan maktablar.

tarixiy hujjatlardan samarali foydalanadi. Romanda Tomas Voxxashkning kurashi bilan parallel ravishda Piksi olib borgan kurashga ham guvoh bo‘lamiz. Asar qahramoni Petris oilasini boqish uchun shaharga ketgan va haligacha qaytmagan singlisini topish uchun kurashadi. Mana shu ikki kurashni bog‘laydigan umumiy mavzu – omon qolishdir. Mavzu roman qahramonlari Petris va Tomasning shaxs sifatida omon qolishini emas, balki Amerika tub aholisi bo‘lmish barcha hindu qabilalarining omon qolishini ifodalaydi.

“Tungi qorovul” romanining qahramonlaridan biri – arvohlardir. Ular boshqa qahramonlar bilan muloqot qila oladilar: biri Petrisning yo‘qolgan singlisining qayerda ekanligini aytgan it, ikkinchisi pau-vau marosimida ishtirok etadigan raqqos Roderikdir. Ikki arvoch obrazlarini gavalantirish orqali Luiza Erdrik asariga bir necha mo‘jizaviy realizm elementlarini olib kiradi.

Shimoliy Dakota Chippeva hindularidan bo‘lgan Luiza Erdrik boshqa romanlarida ham Amerika hindulari tarixida sodir bo‘lgan qayg‘uli voqealarga murojaat qiladi. Jumladan, 1887-yilda AQSH ichidagi qabila hududlarida yer huquqlarini tartibga solgan Doues qonunidir (the Dawes Allotment Act of 1887). Ushbu siyosat tub amerikaliklarning yerlarini tartib olish, urf-odatlarini yo‘q qilish va oxir-oqibat ularni qashshoqlik va parchalanishga olib borish orqali vayron qildi. 1950-yillarda olib borilgan siyosat tub amerikaliklarning qabila hayotini o‘zlashtirish va suverenitetini tugatish yo‘lidagi yana bir qadam edi. “Tungi qorovul” romanida adiba “chechak, sil kasalligi, miltiq va to‘pponcha o‘qlaridan, va 1918-yilgi gripp epidemiyasidan omon qolgan” [Justice D. 4:98], shu bilan birga hukumatning halokatli urushlarida qatnashgan bo‘lsada, hali ham AQSH davlatining tub amerikaliklarni hal qilinishi kerak bo‘lgan "muammo" sifatida ko‘rayotganligini tasvirlaydi.

Amerika hindulari madaniyatini o‘rgangan tadqiqotchi Deniel Xit Jastisning fikricha, "haqiqat va ruhiy olam o‘rtasidagi chegara shunchalik nozik-ki, ular bir biri bilan tutashib ketadi" [Justice D. 4:124]. Bu esa, Amerika hindulari adabiyotida “notinch ajdodlar arvohlari" odatiy hol ekanligini izohlaydi. Yozuvchi “Tungi qorovul” asarida kitobxonga Amerika hindularining o‘ziga xos dunyoqarashini taqdim etadi, “go‘yoki bunda afsonaviy va real hayot bir joyda mavjud bo‘lib, sehrli elementlar tasvirlangan real hayotdan tabiiy ravishda o‘sib chiqadi” [Aldea E. 1:3]. Shu tariqa, adiba Amerika tub aholisining qayg‘uli o‘tmishini eslashga muvaffaq bo‘ladi. L.Erdrik "mustamlakachilik siyosati tugagan bo‘lsa-da, o‘tmishdagi azob-uqubatlar hozirgi kunda qanday davom etayotganini ko‘rsatadi” [Justice D. 4:124]. Bu esa o‘z navbatida hindu qabilalarining vaqt va makonda tajribasi uzluksizligini anglatadi. Adabiyotshunos Enn Bauersning ta’kidlashicha mo‘jizaviy realizm G‘arb nazariyasi bo‘lsada, Amerika adiblari uni qayta ko‘rib chiqdilar, asarlarida

millatlararo kontekstni talqin qilishda foydalandilar va bunday yondashuv adabiyotda, aynan AQSH adabiyotida irqiy ajratish xavfini kamaytirdi [Justice D. 4:124]. Amerika adiblari mo‘jizaviy realizmning G‘arbiy an‘analariga o‘zlashtirgan holda ezilgan millat vakillariga, ayniqsa, qora tanli va Amerika hindulariga so‘zlash imkonini, ovozini eshitish imkonini berdi.

Yozuvchi “Tungi qorovul” romanida bir necha mo‘jizaviy realizm elementlaridan foydalanadi. Ulardan biri ajdodlar arvohi bo‘lib, asarda ular o‘tmishni tadqiq qilish vositasini bajarishadi. Mo‘jizaviy realizmga xos bo‘lgan asarlarda ko‘p voqealar qishloqda, tabiat qo‘ynida sodir bo‘ladi, kamdan kam yozuvchilar roman voqealarini siyosiy va ijtimoiy keskinlik o‘chog‘i bo‘lgan yirik shaharlarda tasvirlaydi. “Tungi qorovul” asarida esa voqealar ikkala joyda, ham shaharda, ham qishloqda sodir bo‘ladi. L.Erdrik voqealarni asosan Toshbaqa tog‘i etagida joylashgan kichik shaharchada, qabila kelajagi uchun muhim bo‘lgan ba‘zi voqealarni esa Minniapolis va Vashington shahrida tasvirlaydi. Asarda bir necha roviyning mavjudligi o‘tmish va hozirgi zamoni bir biriga bog‘lash vazifasini o‘taydi, bu esa o‘z navbatida mo‘jizaviy realizmga xos bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi an‘analarining ta‘siridan dalolat beradi [Holgate B. 6: 636].

“Tungi qorovul” romanida Luiza Erdrich Amerika hindularining o‘ziga xos boy tarixini tiklash maqsadida G‘arb va mahalliy madaniy manbalarni taqqoslaydi. Adabiyotshunos E.Bauers fikricha, romanda reallik va mo‘jiza o‘rtasidagi chiziqlar xiralashishi bilanoq kitobxon haqiqatni anglashga muyassar bo‘ladi [Bowers E. 2: 85]. Ko‘rinib turganidek, adiba mazkur asarida G‘arb an‘analariga taqlid qilmagan holda Amerika hindularining an‘analarini, urf-odatlarini va madaniyatini sofligicha saqlab qolishga urinadi. Hayvonlarni, o‘simliklarni, ruh va arvohlarni “insondan farq qiluvchi shaxs” sifatida o‘zgarishlarga ta‘sir qila olish qobiliyatiga ega ekanligini o‘rgangan tadqiqotlarga [Harrison-Buck E. 5:5] asoslangan adabiyotshunos D.Jastis “mahalliy hindularning tanalari, hoh o‘lik yoki tirik bo‘lsin, doimiy kurash joyi hisoblanadi” deya ta‘kidlaydi [Justice D. 4:140]. Mahalliy xalqlar bilan “insondan farq qiluvchi shaxslar” o‘rtasidagi barqoror munosabatlar mustamlakaga qarshi kurashda mahalliy tub aholi uchun muhim ahamiyatga ega. Amerika hindulari kontekstida esa “shaxs/shaxsiyat faqat tiriklik yoki insoniyatni anglatmaydi” va shu bois, ajdodlar ruhi, arvohlar va so‘zlasha oladigan hayvonlar xayoliy, fantastik va to‘qima hisoblanmaydi. Ular faol ijtimoiy mavjudotlar bo‘lib, ularning vazifasi ajdodlar va avlodlar o‘rtasida mazmunli aloqalarni o‘rnatishdan iboratdir. “Tungi qorovul” romanida Roderik tunda odamlarni tasodifiy ko‘rinishlari orqali ta‘qib qiladigan arvoh sifatida tasvirlanmagan. Roderikga asarning boshqa qahramonlari oddiy ism berilgan, uning arvoh ekanligi ham nazarda tutilmagan. Bu esa kitobxonda voqealarni ikki xil talqin qilishga imkon bermaydi [Warnes Ch. 8:8].

Muhim jihat shundaki, yozuvchi Roderikka tananing "harakat qila olish qobiliyatini" beradi. Jumladan, Roderik Tomas Voxxashk va LaBattni kuzatadi, ikkalasini ham xavfdan ogoh etadi. U boshqa odamlar kabi jamoat transportida yuradi, qabila vakillari bilan Kongressda ishtirok etadi, hatto uning ismi Kongressda qatnashganlar ro'yxatida ham qayd etiladi. Adabiyotshunoslar Richard Perez va Viktoriya A.Chivalyerlarning munozaralariga ko'ra, XXI asr adabiyotida arvohtar "nafaqat o'tmish azoblarini eslatib turadi, balki borliqni, hayotni qadrlagan holda yanada adolatli jamiyat qo'rishga undaydi, va insonni kelajakda yanada salohiyatli bo'lishga chorlaydi" [Perez, R., Chevalier V. 7:12]. Adabiyotshunos L. Parkinson Zamoraning Lotin Amerika adabiyotida arvohtar tabiati haqidagi maqolasida ta'kidlashicha, "asarga kiritilgan arvohtar vazifasi sodir etilgan jinoyatlar, inqirozlar, vahshiyliklar haqida eslatishdir. Ularning yana bir vazifasi tarqoqlashtirish yoki birlashtirishdan iboratdir" [Zamora L. 9:498]. Qayg'uli o'tmish kontekstida Roderikka yuklatilgan vazifa – "o'tmishni, madaniyatni yangi avlodga eslatishdir". AQSH davlatining hindularga oid islohotlarining barchasida ishtirok etgan Roderikka yozuvchi yana bir boshqa tarixiy voqeaga guvoh bo'lishini istaydi. Bunday yondashuv adabiyotshunos K.Broganning fikricha, arvohtar "o'tmish bilan uzluksiz bog'langanligimizni" ifodalaydi [Brogan K. 3:180].

Xulosa qilish mumkinki romanda Roderik obrazi L.Erdrikgaga Amerika hindularining uzoq tarixini qamrab olish imkonini beradi va shu orqali AQSHning hindu qabilalariga oid siyosati qanday qilib "hindularni oq tanlilarga aylantirishga", tub aholini har qanday vosita bilan o'zlashtirishga harakat qilganini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aldea, E. (2011) *Magical Realism and Deleuze: The Indiscernibility of Difference in Postcolonial Literature*. London: Continuum. p.3.
2. Bowers, M. A. (2004) *Magic(al) Realism*. London: Routledge
3. Brogan, K. (1996) *Haunted by history: Louise Erdrich's Tracks*. *Prospects* (21), 169–192.
4. Justice, D. H. (2018) *Why Indigenous Literatures Matter*. Waterloo: Wilfrid Laurier University Press. p.132.
5. Harrison-Buck, E. and Hendon, J.A. (2018) *An introduction to relational personhood and other-than-human agency in archaeology*.
6. Holgate, B. (2015) *Unsettling narratives: re-evaluating magical realism as postcolonial discourse through Alexis Wright's Carpentaria and The Swan Book*. *Journal of Postcolonial Writing* 51 (6), 634–647
7. Perez, R and Chevalier, V.A. (2020) *Introduction: Proliferations of being: the persistence of magical realism in twenty-first century literature and culture*. In: Perez, Richard and Victoria A. Chevalier (eds.) *The Palgrave Handbook of Magical Realism in the Twenty-first Century*. Cham: Palgrave Macmillan, 1–19.

8. Warnes, Ch. (2009) *Magical Realism and the Postcolonial Novel: Between Faith and Irreverence*. New York: Palgrave Macmillan. p.5
9. Zamora, Lois Parkinson (1995) *Magical romance/Magical realism: ghosts in U.S. and Latin American fiction*. In: Zamora, Lois Parkinson and Wendy B. Faris (eds.) *Magical Realism: Theory, History, and Community*. Durham: Duke University Press, 497–550.